



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

6 (80) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (80)

2025

ИЮНЬ

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 20.05.2025, Accepted: 10.06.2025, Published: 15.06.2025

UDK 611.91+616-053.5

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PESHONA SOHASI KRANIOMETRIK
KO'RSATKICHLARI VA PESHONA - YONOQ INDEKSINING YOSHGA VA JINSGA XOS
O'ZGARISHLARI**

Adhamov Sh.A. Email: adhamovshohjahon30@gmail.com

Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Andijon, Otabekov 1

Tel: (0-374) 223-94-60. E.mail: info@adti

✓ *Rezyume*

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar (7–12 yosh) peshona sohasi kraniometrik ko'rsatkichlari va peshona-yonoq indeksining yoshga va jinsga xos morfologik o'zgarishlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot kichik maktab yoshidagi bolalar orasida bosh suyagining asosiy kraniometrik parametrlarini tahlil qilish, ularning yosh va jinsga bog'liq morfologik o'zgarishlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, pediatriya, bolalar jarrohligi va ortodontiya sohaslarida ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshidagi bolalar, kraniometrik ko'rsatkichlar, yoshga va jinsga xos morfologik o'zgarishlar

**ВОЗРАСТНЫЕ И ПОЛОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРАНИОМЕТРИЧЕСКИХ
ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОБЛАСТИ ЛБА И ЛОБНО-ЩЕЧНОГО ИНДЕКСА У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО
ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Адхамов Ш.А.

Андижанский государственный медицинский институт Узбекистон, Андижон,
Ул. Атабеков 1 Тел:(0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ *Резюме*

В статье анализируются возрастные и половые особенности морфологических изменений краниометрических показателей области лба и лобно-щечного индекса у детей младшего школьного возраста (7–12 лет). Целью настоящего исследования является анализ основных краниометрических параметров черепа у детей младшего школьного возраста и выявление у них возрастных и половых морфологических изменений, что имеет научное и практическое значение в области педиатрии, детской хирургии и ортодонтии

Ключевые слова: дети младшего школьного возраста, краниометрические показатели, возрастные и половые особенности морфологических изменения

**AGE - AND GENDER-SPECIFIC CHANGES IN CRANIOMETRIC INDICATORS OF THE
FOREHEAD AREA AND THE FOREHEAD-CHEEK INDEX IN CHILDREN OF EARLY
SCHOOL AGE**

Adkhamov Sh.A.

Andijan State Medical Institute, 170100, Uzbekistan, Andijan, Atabekova st.1
Тел:(0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ *Resume*

This article analyzes the age- and gender-specific morphological changes in the craniometric parameters of the forehead and the forehead-cheek index in children of primary school age (7–12 years). This study is aimed at analyzing the main craniometric parameters of the skull among primary school children and identifying their age- and gender-related morphological changes, which is of scientific and practical importance in the fields of pediatrics, pediatric surgery, and orthodontics

Keywords: children of primary school age, craniometric indicators, age- and gender-specific morphological changes

Dolzarbligi

Inson bosh suyagining shakllanishi va o'sishi yoshga va jinsga bog'liq holda turli bosqichlardan o'tadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda (7–12 yosh) kraniometrik ko'rsatkichlarning o'zgarishi nafaqat ularning jismoniy rivojlanish jarayonini tushunishda, balki tibbiyot sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Bosh suyagining o'lchami va shakli bolaning intellektual, jismoniy va ortodontik rivojlanishiga ta'sir qilishi sababli, ushbu parametrlarning o'zgarishini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, jinsiy tafovutlarning aniqlanishi o'g'il va qiz bolalarda bosh suyagi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi: kichik maktab yoshidagi bolalar peshona sohasi kraniometrik ko'rsatkichlari va peshona-yonoq indeksining yoshga va jinsga xos o'zgarishlarini tahlil qilish.

Material va usullar

Tadqiqotning obykti sifatida Andijon viloyati Izboskan tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 41-umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan 1-6 sinfdagi (7-12 yosh) 180 nafar o'g'il va qiz bolalar olindi. Tadqiqotning usullari: kraniometrik va variatsion-statistika usullari (A.M.Merkov va L.N.Polyakov bo'yicha). Peshona diametri (kengligi) – bunda ikkala tomondagi peshona do'mboqlarining eng turtib chiqqan joylari orasidagi masofani o'lchandi. Peshonaning eng keng qismi – peshona suyagi pallasining eng kengaygan qismi, kallaning ikkala tomonidagi stefanion (st) nuqtalari orasidagi masofa. Shtangensirkul yordamida o'lchandi. Peshonaning eng tor qismi – bu frontotemporal (ft) nuqtalar orasidagi masofa. Biz frontotemporal nuqtalar orasidagi to'g'ri chiziq hisobiga, shtangensirkul yordamida o'lchadik. Peshona-yonoq ko'rsatkichi = peshonaning eng tor qismi*100 yonoq diametric.


Natija va tahlillar

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalarda peshona diametri o'lchami 7 yoshda $8,10 \pm 0,60$ smga $P < 0,01$, 10 yoshda $8,52 \pm 0,30$ smga $P < 0,01$ va 12 yoshda esa $8,86 \pm 0,20$ sm ga $P < 0,01$ yetadi. Ushbu ko'rsatkichning bu davr ichida nisbatan jadal o'sishi 10-12 yoshlar orasiga to'g'ri keladi ($8,52 \pm 0,30$ smdan $8,86 \pm 0,20$ smga $P < 0,01$). Peshona diametri qiz bolalarda esa 7-12 yoshgacha bo'lgan davrda $7,66 \pm 0,60$ smdan, $P < 0,01$, $8,54 \pm 0,46$ smga, $P < 0,01$ oshadi. Bu davrda ko'rsatkichning nisbatan jadal o'sishi 8-11 yoshlar orasiga to'g'ri keladi.

7 yoshdan 12 yoshgacha bolgan bolalarda peshona diametri o'lchami boshqa antropometrik ko'rsatkichlar singari yoshga va jinsga mos ravishda bir maromda o'sib boradi. 7-12 yoshdagi o'g'il bolalarda peshona diametri o'lchami $8,10 \pm 0,60$ smdan, $P < 0,01$, $8,86 \pm 0,20$ smga, $P < 0,01$, yetsa, qiz bolalarda $7,66 \pm 0,60$ smdan, $P < 0,01$, $8,54 \pm 0,46$ smga, $P < 0,01$, ortishi kuzatiladi.

Diagramma №1

Kichik maktab yoshidagi bolalarda peshona diametri ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)



Peshonaning eng keng qismi o'lchami 7 yoshdagi o'g'il bolalarda $12,24 \pm 0,76$ smga teng bolsa, 10 yoshg kelib $12,76 \pm 0,20$ smga va 12 yoshda esa $13,36 \pm 0,40$ smga yetadi. Ushbu ko'rsatkich o'lchami 7

yoshli qiz bolalarda esa $12,08 \pm 0,20$ smga, 10 yoshda $12,56 \pm 0,40$ smga va 12 yoshga kelib $13,10 \pm 0,34$ smgacha kattalashishi olingan natijalardan o'z aksini topmoqda. Peshonaning eng keng qismi qiz bolalarda asosan, 10-12 yoshgacha bo'lgan davrda o'sishi ortadi.

Diagramma №2

Kichik maktab yoshidagi bolalar peshona eng keng qismining kranioimetrik ko'rsatkichlarini o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)




Diagramma №3

Kichik maktab yoshidagi bolalar peshona eng tor qismining kranioimetrik ko'rsatkichlarini o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)





Diagramma №4

Kichik maktab yoshidagi bolalar yonoq diametrining o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)



Peshonaning eng tor qismini o'lchami 7 yoshdagi o'g'il bolalarda $10,14 \pm 0,10$ smga teng bo'lib, 10 yoshda $11,18 \pm 0,22$ smga ortadi. Ko'rsatkich o'g'il bolalarda 12 yoshga kelib $11,72 \pm 0,34$ smga tenglashadi. Qiz bolalarda esa mos ravishda 7 yoshda $10,06 \pm 0,26$ smga teng bo'ladi, 10 yoshda $10,68 \pm 0,54$ smga oshadi va ushbu ko'rsatkich 12 yoshga kelib $11,22 \pm 0,36$ smga yetadi.

Yonoq diametri 7 yoshdan to 12 yoshgacha o'g'il bolalarda mos ravishda $9,8 \pm 0,22$ smdan, $P < 0,01$, $11,4 \pm 0,16$ smgacha, $P < 0,01$, qiz bolalarda esa $9,6 \pm 0,34$ smdan, $P < 0,01$, $10,6 \pm 0,36$ smgacha, $P < 0,01$ intensiv ravishda o'sib boradi. Yonoq diametri o'rganilgan yoshdagi qiz bolalarda bir me'yorda kattalashib boradi, ya'ni 7 yoshdagi qizlarda $9,6 \pm 0,34$ smga, $P < 0,01$ teng bo'lsa, 10 yoshda $10,2 \pm 0,40$ sm, $P < 0,01$ va 12 yoshda esa $10,6 \pm 0,36$ smgacha, $P < 0,01$, kattalashadi.

Yonoq diametri ko'rsatkichlari o'g'il bolalarda 16 % ga oshsa, qizlarda esa 11 % ga oshishi kuzatiladi.

1 jadval

Kichik maktab yoshidagi bolalar peshona-yonoq indeksi ($X \pm m$, sm da)

Bolaning yoshi	Jinsi	Kraniometrik ko'rsatkichlar
		Peshona-yonoq ko'rsatkichi
7 yosh	O'g'il	102,60
	Qiz	102,92
8 yosh	O'g'il	101,34
	Qiz	103,90
9 yosh	O'g'il	101,50
	Qiz	104
10 yosh	O'g'il	103,30
	Qiz	102,56
11 yosh	O'g'il	100,04
	Qiz	103,24
12 yosh	O'g'il	101,70
	Qiz	102,02

Xulosa

Peshona-yonoq ko'rsatkichi o'g'il bolalarda 10-11 yoshgacha bo'lgan davrda o'sish nisbatan pasayadi (103,30 dan 100,04 ga). Lekin 12 yoshga kelib, bu ko'rsatkich 1,6 % ga oshib 101,70 ga etadi. Qiz bolalarda esa nisbatan o'sish pasayadi va 2 % ga kamayadi.

Kalla suyagini peshona qismiga oid kraniometrik ko'rsatkichlarini o'lchash natijalari shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalarda peshona sohasining kattalashuv davri kichik maktab yoshi davrining 1-yarmiga, qiz bolalarda esa 2-yarmiga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Автандилов Г.Г. Медицинская морфометрия. - М.: Медицина, 1990. - 384 с.
2. Автандилов Г.Г. Медицинская морфометрия: руководство/ Г.Г. Автандилов. М.: Медицина, 1992. - 380 с.
3. Ulug'bekova G.J., Adhamov Sh.A. Andijon viloyati Izboskan tumani sharoitida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari (monografiya) .T.: "Andijon nashriyot-matbaa", 2023. 112 bet.
4. Ulug'bekova G.J. Adhamov Sh.A. Profilaktik tibbiyotda antropometrik tadqiqotlarning o'rni. "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami, 2023, Qo'qon, 227-231-b.
5. Ulug'bekova G.J., Adhamov Sh.A. 7-12 yoshdagi bolalarda yonoq diametrining o'sish dinamikasi QarDU xabarlari, 2023, Qarshi, №3/1(59), 127-130-b.
6. <https://elibrary.ru>
7. <https://www.dissercat.com>
8. <https://www.ziynet.uz>

Қабул қилинган сана 20.05.2025